

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
Oliy malaka komissiyasining 2-sonli qarori

**K O ‘ C h I R M A**

2024-yil 19-mart

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Oliy malaka komissiyasito‘g‘risidagi nizomning (ro‘yxat raqami 2166, 2010-yil 21-dekabr) 10-bandiga asosan Oliy malaka komissiyasining majlisida komissiya a‘zolarining uchdan ikki qismi qatnashayotganligi sababli vakolatli (kvorumga ega) hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyuldagi 369-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiyl notarial faoliyat bo‘yicha malaka imtihonini tashkil etish yuzasidan davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga, Davlat notarial idorasi notariusini lavozimiga tayinlash bo‘yicha tanlov, xususiyl notarial faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini berish bo‘yicha malaka imtihonini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga (ro‘yxat raqami 3114, 2019-yil 4-yanvar) va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi to‘g‘risidagi nizomga (ro‘yxat raqami 2166, 2010-yil 21-dekabr) asoslanib, Adliya vazirligi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi

**Q A R O R   Q I L A D I :**

20. Nuriddinov Komil Sayfiddin o‘g‘li malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan deb topilsin.

32. Malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan deb topilgan barcha talabgorlar notarius qasamyodini qabul qilgan deb hisoblansin.

36. Mazkur qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Komissiya mas‘ul kotibi

R. Abdig‘abbarov

**Ko‘chirma asliga to‘g‘ri  
Komissiya mas‘ul kotibi**



**R. Abdig‘abbarov**